



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING**  
**QARORI**

**Statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-sentabrdagi 690-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Statistika hisoboti shakllari 1–98-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.
2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 11-oktabrdagi 10-mb-son “2022-yil uchun statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 3334, 2021-yil 25-noyabr) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi 25.11.2021-y., 10/21/3334/1096-son);

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022-yil 20-apreldagi 17-mb-son “2022-yil uchun statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 3334-1, 2022-yil 19-may) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.05.2022-y., 10/22/3334-1/0439-son).

3. Mazkur qaror 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat  
statistika qo‘mitasining raisi**



**Begalov B. A.**

Toshkent sh.  
2022 - yil 16 - noyabr,  
23-mb-son